

ABDURAUUF FITRAT NASRIDA DIALOGNING QO‘LLANISHI

Akbaraliyeva Nargiza Muhammadali qizi

ToshDO‘TAU magistranti

nakbaraliyeva2519@gmail.com

+99899 8655914

Annotatsiya

Ushbu maqolada jadid adabiyotimizning vakillaridan biri bo‘lgan Abdurauf Fitratning ijodiga, uning nasriy asarlarida dialog uslubining qo‘llanishiga e‘tibor qaratmoqchimiz. Nasriy asar kompozitsiyasida dialogni o‘z o‘rnida qo‘llanishi uni yanada go‘zal va ta’sirliroq qiladi. Buni betakror namunasi sifatida yuqoridagi adibimizning asarlarini tahlilga tortmoqchimiz.

Annotation

In this article, we would like to draw attention to the work of Abdurauf Fitrat, one of the representatives of our modern literature, and the use of dialogue style in his prose works. The use of dialogue in the composition of a prose work makes it more beautiful and impressive. As a unique example of this, we would like to analyze the works of our above writer.

Аннотация

В данной статье мы хотели бы обратить внимание на творчество Абдурауфа Фитрата, одного из представителей нашей современной литературы, и использование стиля диалога в его прозаических произведениях. Использование диалога в композиции прозаического произведения делает его более красивым и впечатляющим. В качестве уникального примера этого мы хотели бы проанализировать произведения вышеуказанного писателя.

Kalit so‘zlar : Abdurauf Fitrat, nasriy asar, dialog, obraz, ta’sirchanlik

Key words: Abdurauf Fitrat, prose work, dialogue, image, impressionability

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, прозаическое произведение, диалог, изображение, впечатлительность

O‘zbek adabiyotida jadidchilik davri alohida o‘rin tutadi. Bu davrda hikoya, ocherk, roman kabi janriy yangilanishlar kuzatildi hamda adabiyotimizda alohida ahamiyat kasb etadigan salmoqdor asarlar yozildi. Masalan, M. Behbudiyning “Padarkush”, Hamzaning “Boy ila xizmatchi” va “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”, A. Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq”, A. Fitratning “Qiyomat” va “Munozara” kabi asarlarini eslab o‘tish joiz.

Ushbu maqolada Fitratning nasriy asarlarida dialog usulining qo‘llanishiga batafsil to‘xtalmoqchimiz. Dialog deganda ikki yoki undan ortiq kishilarning o‘zaro suhbat

tushuniladi. Ya'ni ikki kishi o'rtasidagi har qanday suhbatni dialog sifatida olish mumkin. Dialogning o'ziga xos xususiyatlari ana shu suhbat jarayonida ochilib boradi. O'zaro suhbatning maqsadi va mavzusi, suhbatdoshlarning bilimi, dunyoqarashi, jamiyatda egallagan mavqeyi va bir-biriga munosabati dialogning mazmun-mohiyatini belgilaydi.

Dialogik nutq orqali qahramonlar ruhiyatini ochishda samarali foydalanish mumkin. Bunday uslub orqali nasriy asar yanada o'qishli va ta'sirliroq chiqadi. "Dialogik nutq deb ikki yoki undan ortiq qahramonning o'zaro muloqotiga aytiladi. Dialogik nutqda qahramonlar tabiatini aniq ifodalash imkoniyati mavjud. Dialogik nutq deb ikki yoki undan ortiq qahramonning o'zaro muloqotiga aytiladi. Misol uchun, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Besh bolali yigitcha" asaridan quyidagi misolni ko'ramiz:

Shu paytda negadir juda, juda ham g'alati bo'lib ketdim. Tomog'imga iliq bir narsa tiqilgandek butun vujudim bo'shshib ketgandek bo'ldi, yig'lab yubordim.

- Iye, tentak, nega yig'laysan?.

- Ona!

- Nima gap o'zi?

- Xafa bo'lmaysizmi?

- Nega xafa bo'lar ekanman!

- Yig'lamayman, deb so'z bering!

- Avval ayt-chi!

- Yo'q, avval so'z bering.

- Ha, aka so'z berdim.

- Otamni... - dedim-u, yana yig'lab yubordim."¹

Abdurauf Fitratning "Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadida xususida qilgan munozarasi" (qisqacha aytganda "Munozara") asari boshidan oxirigacha bahs-munozara shaklida yozilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, ikki kishi o'rtasidagi suhbat mazmunini ifodalashda dialog uslubidan samarali foydalangan. Masalan, asarda bolalarning ta'lim olishi sharoitlari qanday yoritilganligini quyidagi qisqagina dialogdan anglab olish qiyin emas.

- "Farangi: Jug'rofiyo hikoyat kitobi emas, ilmiy kitobdir. Juda foydali, bir necha qismdai iborat. Uning bir qismini «istotistik» ataydilar: munda har mamlakatning aholisi bayon qilinadi. Masaladan uzoqlashdik. Siz bilmas ekansiz, men arz qilsam, Buxoroning ilgarilari ham o'n milyo'n aholisi bor edi. Hozir uning sakkiz milyo'ni rus tasarrufida qoldi. Ikki milyo'n, ehtimol, undan kamrog'i (o'z hududida) saqlangan. Bu hisobdan yetmish ming nafari shahar ichidadir, qolg'anlari uning tegrasinda. Endi marhamat qilib ayting-chi, bu ikki milyo'n odamning hammasi ham ilmlimi yo yo'q?

¹O'roqova Dilnavoz. Badiiy matn va uni shakllantiruvchi vositalar. "Talqin va tadqiqotlar" ilmiy-uslubiy jurnali, 2022. –B.

-Mudarris: Yo‘q, hammasining ilmlil bo‘lishi mumkin emas. Agar hammasi olim bo‘lib ketsa, boshqa ishlar egasiz qoladi.

-Farangi: Ularning yarmi ilmlimi?

-M u d a r r i s: Yo‘q.

-Farangi: To‘rtidan biri ilmlimi?

-Mudarris: Yo‘q, o‘shal yetmish ming shahriydan boshqasi ilmdan bebahra avomdir”.²

Endi quyidagi dialogga e‘tibor qarataylik :

“M u d a r r i s: O‘hho‘, biz Buxoro ulamosi arab tilini arablarning o‘zidan ham yaxshiroq bilamiz.

-Farangi; Shunisi ham g‘animatdur. Marhamat qiling, biroz birgalikda arab tilida so‘zlashib ko‘raylik, men ham bu tildan xabardormanmi yo yo‘q?

- Mudarris; (Ay xudo! Bu nogahon baloni qayerdan boshing‘a yubording? Meni asta-asta rasvo qilishiga yaqin qoldi.) Birodar, afu etasiz. Biz, Buxoro. ulamosi, arabcha gaplashishni bilmaymiz. Bizning arabcha bilishimiz shu me‘yordaki, mullabachchalik vaqtimizda ustozning yonida o‘qigan edik, arabcha dars kitoblarini bir kechada mashaqqat yutib, ulardan sahifasinigina mutolaa qila olardik.

-Farangi: Bay, bay! Siz Buxoro ulamosi xo‘b «arabiydon» ekansiz. Bizning bolalarimiz uch yil maktabda o‘qib, zaruriy xat-savodni chiqargach, 2—3 tillarni va diniy masalalarning muqaddimasi, hukmlari, tarixi, hisob ilmini yaxshi o‘rganadilar. Siz 20 yil arabcha tahsildan keyin ham hanuz u tilda takallum qilishga ojizsiz. Uff!.. Abu Ali va Forobiy kabi komil farzandlarni yetishtirib, bunday kimsasiz va qora kunda o‘tirgan sho‘rlik Buxoro, begonalarning shuhrati, ilmu fazilat nog‘orasining shovqinini sharofat deb ko‘tarib yurishg‘a majbur bo‘ldingki, bu jaholat va falokat poyasiga yetib qolg‘aningdandir, bechora Buxoro! Janobi mudarris, axir insof qiling, bu ilmsizlik qachong‘acha, bu nodonlik qachong‘acha?! Ilm mulk-mamlakat obodligining sababchisidir. Ilm millat taraqqiysining boisidir. “³

Yuqoridagi dialogni tahlilga tortganimizda shuni anglashimiz mumkinki, asardagi **“farangi”** obrazini jadid ziyolilarining siymosi deb hisoblashimiz mumkin. Chunki **“farangi”** asarda boshdan-oyoq yangicha fikrleydigan kishi obrazida namoyon bo‘lib, diniy ilmlarni inkor etmagan holda dunyoviy ilmlarni ham o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, mudarrisning : “-Birodar, afu etasiz. Biz, Buxoro. ulamosi, arabcha gaplashishni bilmaymiz. Bizning arabcha bilishimiz shu me‘yordaki, mullabachchalik vaqtimizda ustozning yonida o‘qigan edik, arabcha dars kitoblarini bir kechada mashaqqat yutib, ulardan sahifasinigina mutolaa qila olardik”, - degan so‘zlari orqali o‘sha davrdagi ilm ahlining saviyasini ham yaqqol ochib bergan. Yana shu narsani ham qo‘shimcha qilishimiz mumkinki, **“mudarris”** obrazi vositasida o‘z

²Фитрат А. Танланган асарлар 1-жилд. –Т.: Маънавият, 2020. –Б. 72

³Фитрат А. Танланган асарлар 1-жилд. –Т.: Маънавият, 2020. –Б. 89

kasbiga yuzaki yondoshmasdan bir ilmni o'rganishni maqsad qildimi uni mukammal egallash lozimligi ham ta'kidlab o'tilgan.

“Farangi” obrazining so'zlaridan esa jadidchilik g'oyalarini, ular ilm-ma'rifat yo'li bilan xalqni rivojlantirishni qanchalik istaganliklarini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, yangi usul maktablari, ulardagi o'quv sharoitlari, ularda nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlar ham o'rgatilishi rejalashtirilganligini tasavvur qilish qiyin emas.

“Farangi: Tuzuk. Ammo bir mulkning ilm quvvatini bilmak, u yerdagi ulamolar sonini bilmakka bog'liqdir. Bas, marhamat qilib ayting-chi, Buxoroning jami aholisi qancha? Mudarris: Birodar! Men bir band odam bo'lsam, Buxoroning qaysi ko'chalarida yurib, uning odamlarini sanabman?!

Farangi: Yo'q, yo'q aslo! Men bunday deb taklif qilsam, magar Sizning yurtingizda jug'rofiyo o'qimaylarmi?

Mudarris: Men bir mudarris bo'lsam, kechalari kitob ko'raman, kunduzlari dars aytaman. Qachon qo'lim tegibdiki, munday hikoyat kitoblarini o'qisam. Munday kitoblar Buxoroda yo'q. Bo'lganda ham qissaxonlik quradigan boylarning uylarida bo'ladi”.⁴

Yuqoridagi dialogdan kuzatishimiz mumkinki, madrasa ta'lim beruvchi mudarrisning ya'ni Buxorodagi ziyoli qatlam vakilining dunyoqarashi ham ochib berilgan. Masalan, o'ylab ko'ring a madrasada dars beruvchi kishining jug'rofiya (geografiya) fanidan umuman xabari bo'lmasa-ya, bu bir tarafdan mudarrisning dunyoqarashi, fikrlash darajasini ko'rsatsa, ikkinchi tarafdan limning bir tomonlama bo'lib qolganligini ko'rsatadi.

“Pochamir titradi, qarasa, qo'rqinchli bir malak!

— Nima deysiz menga?! — dedi Pochamir.

— Yur, qil ko'prikdan o'tasan!

— Men o'tmasam, shunda qolsam-chi?!

— Bo'lmaydir! — Mayli, unday bo'lsa, qo'yingiz, bir yutum suv ichib kelay.

— Bo'lmaydir”.⁵

Bu yerda aytishimiz mumkinki, muallif bandaning oxiratda Sirot ko'prigidan o'tish holatini qisqagina dialog orqali ochib berishga harakat qilgan. Bunda dialog usulidan samarali foydalangan holda, o'quvchini voqea jarayonlariga olib kirish, unda yanayam aniqroq tasavvur uyg'otishga erisha olgan deb o'ylayman.

Ushbu maqolada jadid adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lmish Abdurauf Fitratning nasriy yo'lda yozilgan asarlarida dialog usulining qo'llanishini tahlilga tortishga harakat qildik. Nasriy asarlarda dialogning o'rni, obrazlar dunyoqarashini ochishdagi ahamiyati va asar ta'sirchanligini yanada oshirishda xizmat qiluvchi vosita ekanligini haqida so'z yuritganmiz. A. Fitrat nafaqat dramatic, balki

⁴Фитрат А. Танланган асарлар 1-жилд. –Т.: Маънавият, 2020. –Б. 71

⁵Фитрат А. Танланган асарлар 1-жилд. –Т.: Маънавият, 2020. –Б. 226

nasriy asarlarda ham dialoglardan unumli foydalangan va asarlarida ko'tarilgan mohiyatni kengroq ochib bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild "Ma'naviyat" nashriyoti, 2000
2. Abdurauf Fitrat "Munozara"
3. Abdurauf Fitrat "Qiyomat"
4. O'roqova Dilnavoz. "BADIIY MATN VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITALAR"
5. <https://hozir.org/ozbekiston-milliy-ensiklopediyasi.html?page=2> sayti
6. <https://turi-uzbekistana.ru/stati/fitrat-uzb-istorik-poet.html> sayti